

2. Бибер Д., Конрад С., Реппен Р. (1998). *Корпусная лингвистика: изучение структуры и использования языка*. Кембридж: Cambridge University Press.
<https://doi.org/10.1017/CBO9780511804489>
3. Влавацкая М. В. (2019). *Комбинаторная лингвистика: история, терминология, функции*. Новосибирск: Издательство НГТУ.
4. Гицаки К. (1999). *Лексическое развитие второго языка: исследование взаимосвязи между знанием коллокаций и владением вторым языком*. Брисбен: Университет Квинсленда. <https://espace.library.uq.edu.au/view/UQ:22128>
5. Эллис Н. К. (1996). Рабочая память и изучение словарного запаса и синтаксиса: определение языка и языка. *Прикладная когнитивная психология*. вып. 10, №3.
6. Эль-Дахс Д. А. С. (2015). Коллокационная компетентность в преподавании английского языка. *Arab World English Journal*. т. 6, № 1. 68-82.
<https://doi.org/10.24093/awej/vol6no1.5>
7. Холлидей М. А. К., Хассан Р. (1976). *Коммуникация на английском языке*. Лондон: Лонгман.
8. Хоуи М. (2005). *Лексический прайминг: новая теория в английском языке и языке*. Лондон: Рутледж. <https://doi.org/10.4324/9780203327630>
9. Любис М. (1997). *Лексический подход: состояние преподавания английского языка и перспективы*. Хов: Публикации по преподаванию языка.
10. Маккарти М., О'Делл Ф. (2017). *Английский язык Употребляемые словосочетания: продвинутый уровень*. Кембридж: Издательство Кембриджского университета.
11. Нейшн П. (2001). *Изучение лексики другого языка*. Кембридж: Издательство Кембриджского университета. (на английском)
<https://doi.org/10.1017/CBO9781139524759>
12. Партингтон А. (1998). *Модель и значение: использование корпуса для изучения и преподавания английского языка*. Амстердам: Издательство Джона Бенджаминса. (на английском) <https://doi.org/10.1075/scl.2>
13. Рэй А. (2002). *Формульный язык и лексикон*. Кембридж: Издательство Кембриджского университета. (на английском) <https://doi.org/10.1017/CBO9780511519772>
14. Синклер Дж. М. (1971). *Корпус, конкорданс, коллокация*. Оксфорд: Издательство Оксфордского университета.

Chet tilini o'qitish jarayonining o'ziga xos tomonlari

Rustamova Shoxista Sharifovna

rustamova-87@internet.ru

Dotsent,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya

Chet tilini o'qitish jarayoni – bu o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab va ko'p qirrali pedagogik faoliyatdir. An'anaviy grammatik-tarjima usullaridan farqli ravishda, zamonaviy chet tillarni o'qitish jarayoni tilning real hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini asosiy maqsad qilib oladi. O'qituvchi kommunikativ va interaktiv metodlar, shuningdek, axborot texnologiyalari, multimedia vositalari va autentik materiallardan samarali foydalanadi. Chet tili darslarida lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlar uyg'un holda olib boriladi, bu esa o'quvchilarga nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki ularni turli muloqot holatlarida to'g'ri qo'llash imkonini beradi. O'qituvchi endi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quv jarayonini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va hamkorlik muhitini yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Loyihaviy ishlanmalar, rolli o'yinlar, muhokamalar va guruhli topshiriqlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi. Bundan tashqari, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va o'rganish uslublarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Differensial yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Chet tilini o'rganish jarayoni madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirib, o'quvchilarda boshqa xalqlar madaniyati va qadriyatlariga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni tarbiyalaydi. Natijada, o'quvchilar o'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish kabi nutq faoliyat turlarini rivojlantirib, chet tilida erkin fikr bildirish va samarali muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar

Chet tili, o'qitish jarayoni, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, madaniyatlararo muloqot, motivatsiya, differensial yondashuv, axborot texnologiyalari, nutq faoliyati, til o'rganish

Особенности процесса обучения иностранному языку

Рустамова Шохиста Шарифовна

rustamova-87@internet.ru

Доцент,

*Самаркандский государственный
институт иностранных языков*

Аннотация

Процесс обучения иностранному языку представляет собой сложную, многоуровневую и многогранную педагогическую деятельность, направленную на формирование у учащихся коммуникативной компетенции и развитие межкультурного взаимодействия. В отличие от традиционного грамматико-переводного метода, современное обучение иностранным языкам ориентировано на практическое использование языка в реальных ситуациях общения. Преподаватель активно применяет коммуникативные и интерактивные методы, а также современные информационные технологии, мультимедийные ресурсы и аутентичные материалы,

отражающие культуру и общественную жизнь носителей языка. В процессе обучения интегрируются лингвистические, социолингвистические и прагматические аспекты, что позволяет учащимся не только овладевать грамматикой и лексикой, но и правильно использовать язык в различных ситуациях общения. Роль преподавателя меняется: он становится не только источником знаний, но и фасилитатором, организатором и консультантом учебного процесса. Проектная деятельность, ролевые игры, дискуссии и групповые задания способствуют развитию самостоятельности и творческого мышления учащихся. Особое внимание уделяется мотивации, индивидуальным особенностям и дифференцированному подходу, что обеспечивает эффективность обучения. Обучение иностранному языку также способствует развитию межкультурной компетенции, формирует уважение и толерантность к культуре других народов.

**Ключевые
слова**

Иностранный язык, процесс обучения, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, межкультурное общение, мотивация, дифференцированный подход, информационные технологии, речевая деятельность, изучение языка

**Specific Features of the Process of
Teaching a Foreign Language****Rustamova Shokhista Sharifovna**rustamova-87@internet.ruAssociate professor,
Samarkand State Institute of Foreign
Languages

Annotation

The process of teaching a foreign language represents a complex, dynamic, and multidimensional pedagogical activity aimed at developing students' communicative competence and intercultural awareness. Unlike the traditional grammar-translation approach, modern foreign language teaching emphasizes the practical use of language in real-life contexts. Teachers employ communicative, interactive, and student-centered methods that encourage learners to participate actively in the learning process. This includes the integration of technologies such as multimedia resources, online platforms, and authentic materials that reflect the cultural and social realities of the target language community. An effective foreign language classroom combines linguistic, sociolinguistic, and pragmatic components, allowing students to master not only grammar and vocabulary but also appropriate language use in various communicative situations. The teacher's role has transformed from being a transmitter of knowledge to a facilitator and guide who creates meaningful learning experiences through project work, role-playing, discussions, and collaborative tasks. Special attention is given to motivation, individual learning styles, and differentiated instruction, ensuring that every learner progresses according to their potential. Moreover, foreign language education promotes intercultural competence, helping learners understand the values, traditions, and communication patterns of other nations, which in turn fosters tolerance and global awareness. By harmoniously developing the four main

language skills – listening, speaking, reading, and writing – students acquire not only linguistic knowledge but also the ability to think and communicate effectively in the target language. Ultimately, the process prepares learners to function confidently and appropriately in multicultural environments.

Keywords

Foreign language, teaching process, communicative competence, interactive methods, intercultural communication, motivation, differentiated approach, information technologies, speech activity, language learning

Zamonaviy chet tili o'qitish metodikasi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, maktab ta'limida ham tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratishni ko'zda tutadi. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni madaniyatlararo munosabatlar, xalqaro ta'lim dargohlarida tahsil olishga tayyorlash muhim ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilganligi umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining o'rganilayotgan chet tilida tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalari hamda malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Til o'rganish, nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rinni egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: "Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud hodisa) va aksidensiya (tasodifan namoyon bo'luvchi hodisa)larga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm – jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatuvchi grammatikadir. Uchinchi ilm – ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy tushunchalarga binoan qanday qilib darak

gaplarni joylashtirishni o'rgatuvchi hamda bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olishimizga, nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqarishimizga asos beruvchi mantiqdir".

Yusuf Xos Hojib insonda o'quv-idrok va bilim til, so'z orqali ayon bo'lishini aytib, nutqning ravon bo'lishiga da'vat etadi: "O'quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. ...Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Tuman so'z tugunini bitta so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no singdirish payidan bo'lg'in" (Yusuf Xos Hojib, 1990).

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida so'zlash madaniyati haqida quyidagicha e'tirof etadi: "... xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin. Xaloyiq, sening so'zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so'z orqali biladilar. Har kishining ahvoli o'z so'zi ostida yashiringan bo'ladi"(Kaykovus, 2016).

Tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarining shakllanish jarayoni va uning rivojlantirilishi tilshunoslik va psixologiyaaning tadqiqot ob'yektidir. Lingvistikada nutqning uslubiy bo'yoqlari, undagi ekspressiv-modal vositalar, iboralarning o'z o'rnida ishlatilishi nazarda tutiladi. Ayniqsa, chet tilida so'zlashuv ko'nikmasini rivojlantirishda lisoniy va boshqa vositalarning ortiqcha ishlatilishi kommunikativ

muammolarni keltirib chiqaradi. Chet tilida tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish masalasining psixologik komponentlari jahonning taniqli psixologlari P.Ya. Galperin, A.N. Leontev, V.V. Vigotskiy, N.I. Jinkin, I.A. Zimnyaya va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, jarayonning lingvodidaktik jihatlari E.I. Passov, A.A. Mirol'yubov, R.P. Milrud, N.D. Galskova, D.I. Gez, I.L. Bim, P.B. Gurvich, A.N. Shukin kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Og'zaki muloqot va nutqiy faoliyat til mahsuli sifatida o'rganilsa, psixologiya uni muayyan individga xos bo'lgan nutqiy jarayon deb hisoblaydi. E.I. Passov bu jarayonda quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "... Tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarining ustuvor jihati shundaki, unda intonatsiya, mimika va imo-ishoralar orqali so'zlovchi tinglovchiga vaziyatning ikir-chikirlarigacha axborot bera olishi mumkin" (Passov, 1985). Yurtimizdagi metodist olimlar yetakchisi J.J. Jalolov ko'nikma deganda, nutq operatsiyalarini muayyan darajada amalga oshirish qobiliyati tushunilishini aytadi: "ko'nikma ongli holda bajariladigan faoliyatning avtomatlashgan tarkibiy qismidir. Ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat malaka deb ta'riflanadi" (Jalolov, 2012).

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida asosiy prinsiplar va qonun-qoidalar belgilangan bo'lib, ularning asosida ta'lim rivojlanishi uchun qonuniy mustahkamlangan g'oyalarni amalga oshirishning strategiya va taktikasi belgilanadi. Ular jumlasiga: ta'limning insonparvarlik xarakteri, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanishi; ta'limning ochiqligi, ta'lim oluvchini har tomonlama himoyalash ham taalluqli.

Zamonaviy metodikada o'zaro muloqot jarayoniga yo'naltirilgan ta'limiy munosabatlarni, shu faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi aloqani ta'minlash va shu tariqa "sub'yekt-sub'yekt" xarakteriga ega bo'lishni ta'minlovchi muloqot tushunchasi tobora ko'proq ishlatilmoqda. Pedagogik jarayonda,

an'anaviy o'qitish jarayonidan farqli ravishda, o'qituvchi va o'quvchiga xos bo'lgan rollar o'zgarib, o'qituvchi, asosan, dars jarayonida yangi ma'lumotlarni berish bilan butun vaqtni sarflamasdan, o'quvchiga uyga berilgan ma'lumotlar bo'yicha savollarga javob topish va mashg'ulot davomida muayyan muammo ustida ishlashlarida tavsiyalar berib borishni o'z ichiga oladi.

"O'quvchilarning chet tilida tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishda dialogik shakldan foydalanish strategiyasi qo'llaniladi va monologik nutq bosqichma-bosqich ravishda; tayyorgarliksiz, produktiv, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabat bildirishga yo'naltiriladi" (Ahmedova and Kon, 2013). Chunki produktiv shaklning ifodalanishi tanqidiy fikrlash, leksik-grammatik materiallarni mantiqiy tahlillashga yordam beradi. Maktab ta'limi bosqichida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining nutq faoliyatida produktiv shaklni rivojlantirishda murakkab so'z birikmalari va gaplar orqali nutq yaratish va atamalardan ham unumli foydalanish nazarda tutiladi.

Produktiv monologik nutq, so'zlovchining fikr ifoda etishdagi til materialini tanlashda mustaqil harakat qilishi, uni tuzishda ijodiy yondashuv va o'z nutqiga baho bera olish malakasining mukammal rivojlantirilishini ham taqozo etadi.

Tinglab tushunishda o'ziga xos jihatlar ma'lumotning anglanish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Bunda qabul qilinayotgan ma'lumotning sensor va anglash-ma'naviy tasnifi amalga oshiriladi, ya'ni suhbatdosh tomonidan uzatilayotgan tovushlar majmuasini va ularning ma'naviy sharhini muayyan farqlanuvchi xususiyatlar yordamida bajarish va tanib olish (tinglab tushunish) jarayonini ta'minlab beradi. Mazkur kategoriyadagi ko'nikma va malakalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tinglab tushunish;
- muloqot qilish qobiliyati;
- til vositalaridan foydalanish.

Umumta'lim maktablarida chet tilida tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad-o'quvchilarning turli ijtimoiy vaziyatlarda chet tilida jonli muloqot qila olish ko'nikma va malakalarini amalda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Demak, maktab bitiruvchisi ingliz tilida erkin muloqot qilishi, suhbatdoshning nutqiga verbal va noverbal vositalar yordamida javob qaytara olishi, chet tilidan foydalangan holda nutq (monolog yoki dialog) yarata olishi, nutqiy vaziyatlarda turli mavzularda muloqot qila olishi lozim. Shuningdek, tayyorgarliksiz nutq, ya'ni o'zi va atrof muhit, unda sodir bo'layotgan real vaqt kesimidagi voqea-hodisalar haqida adekvat, og'zaki munosabat bildirish qobiliyatiga ega bo'lishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zaro kasbiy munosabatlarning turli vaziyatlarida, turli xil odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati insonning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatining eng muhim omilidir. "Ushbu aspektda, ilmiy va pedagogik tadqiqotning predmeti – bu kasbiy faoliyat jarayonida mutaxassisning boshqa mutaxassislar va mijozlar bilan o'zaro munosabati sifatida tushuniladigan kasbiy aloqadir" (Galskova, 2013).

O'qituvchining o'quv faoliyati (tilni o'rgatish) va o'quvchining o'quv faoliyati (tilni o'rganish va ularni oxirigacha egallash) bilan bog'liq bo'lgan ko'plab uslublar mavjud. Masalan, chet tilini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, natijasi samarali bo'lishi uchun chet tiliga oid bilimlarni o'rganishning mahsuldor usullarini bilish zarur. Bugungi kunda o'quvchi yoshlarimizning kasbga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish va ularni mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shadigan yetuk mutaxassis kadr sifatida tarbiyalash pedagoglarning oliy maqsadi hisoblanadi. Xususan, umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlari davomida til egasi bilan muvaffaqiyatli muloqot olib borishlari uchun zarur bo'lgan tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirishida innovatsion o'qitish metodikasi tatbig'i katta rol o'ynaydi. Ammo,

shuni ta'kidlash joizki, tajriba nuqtai nazaridan, o'qituvchining dars jarayonida faqat bir nechta samarali metodlar va o'qitish strategiyalaridan foydalanishi, o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini uyg'otib, kerakli bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishini kafolatlay olmaydi. Chunki, bugungi axborot asrida yashovchi umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining aksariyat qismi vaqtni behuda o'tkazuvchi turli xil faoliyatlar (jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda soatlab o'tirishi, hattoki, dars jarayonida ham) bilan band bo'lib qolishlari yoki dars mobaynida zerikish, tartibsizlik kabi salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga duchor bo'lishlari sir emas. Shu kabi bir qator ijtimoiy muammolar bilan kurashishda bizga juda kuchli vosita sifatida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarida chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda tasavvurning motivatsion kuchi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish orqali chet tilini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Ammo ushbu sharoitlarning faqatgina o'zi qo'llanilishi o'quvchida motivatsiyaning shakllanishini kafolatlay olmaydi. Biz turli xil ta'lim vaziyatlarida yuqori sinf o'quvchilariga motivatsiya berish bilan bog'liq muammolarga duch kelamiz va natijada bunday muammolar o'qitish qiyinchiligining eng jiddiy manbasiga aylanadi. Shu sababdan ham yuqori sinf o'quvchilarining motivatsiyasini oshirishda o'qituvchining imkoniyatlarini oshirishga e'tibor berish lozim. O'quvchining diqqatini jalb qiluvchi ko'p komponentli, motivatsion strategiyalar taklif qilingan dasturlarni amaliyotga tatbiq etib, o'quvchilarining lisoniy qobiliyatini rivojlantirishda va o'rganish uchun zarur bo'lgan motivatsiya ko'rsatkichlarini oshirishda katta yordam beradi.

Quyidagi oltita asosiy strategiyani dars jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etishda, albatta, ularni mujassamlovchi o'quv faoliyatlarini bajarish talab qilinadi:

tasavvurni yaratish	tasavvurni kuchaytirish	tasavvurni tetik saqlash
tasavvurni kuchaytirish	tasavvurni ishga solish	tasavvurni qarshi muvofiqlashtirish

1-jadval.

Ta'limga, vakolatlarga asoslangan yondashuvning kiritilishi, ta'limning maqsadlarini "kompetensiyaviy yondashuv" va "kompetensiya" tushunchalari orqali taqdim etishga olib keldi. B.Xodjayevning fikricha, kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) – sub'yektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali tashkil qila olishga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub'yektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir (Xodjayev, 2016).

N.A. Muslimovning qayd etishicha, inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi (Muslimov, 2004).

Demak, kompetensiya insonning, mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda, ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati deyish mumkin. Kompetensiya insonga nafaqat kasbiy, balki, uning butun hayot faoliyati davomida zarur bo'lgan qobiliyatlar yig'indisidir. Ularni to'la egallamay turib hech bir mutaxassis o'z pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli yurita olmaydi. Kompetensiyaning turlarini tasniflashga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A. Muslimov kasbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyani quyidagi turlarga ajratadi:

1. Maxsus kompetensiya.
2. Ijtimoiy kompetensiya.
3. Sjaksiy kompetensiya.
4. Individual kompetensiya.
5. Asosiy kompetensiya.

Kompetensiya-kundalik hayotning haqiqiy vaziyatlarida yuzaga keladigan muammolar va vazifalarni samarali hal qilishga imkon beradigan o'ziga xos qobiliyat.


Kompetensiyaning o'ziga xos shakllari kasbiy faoliyatda belgilangan vazifalar doirasini hal qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kompetentlikning yuqori darajalari tashabbuskorlik, tashkilotchilik va o'z harakatlarining oqibatlarini baholash kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi (Bodalev, 1983). Bir qator tadqiqotchilar kompetensiyani professionallikning asosiy tamoyili deb bilishadi (Zagvyazinsky, 2005). Bundan tashqari, kompetensiya hozirgi vaqtda jamiyatda qabul qilingan me'yorlar va standartlarga muvofiq vazifalarni bajarishga tayyorlik qobiliyati bilan belgilanadigan ajralmas professional-mintaqaviy-shaxsiy xususiyat sifatida qaraladi (Markova, 1990). Uning so'zlariga ko'ra, kasbiy faoliyat natijalari, mutaxassisning malakasiga bevosita bog'liqdir. Mutaxassis ishining samaradorligi va uning shaxsiy xususiyatlarini ta'minlaydigan o'ndan ortiq ko'nikmalar guruhini o'rganib chiqib, ularning umumiyli shunchaki kasbiy kompetensiyani tashkil etadi degan xulosaga kelgan. V.A. Adolf nazariy va uslubiy, madaniy, ob'yektiv, psixologik va texnik tayyorgarlikka asoslanib, mutaxassisning kasbiy mahoratini umumlashtirilgan shaxsiy ta'lim, shaxsning ajralmas sifati, faoliyatning eng muhim xususiyati, shuningdek mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi natijasi va sharti sifatida belgilaydi. Kompetensiya nafaqat bilimga ega bo'lish, balki muammolarni bilim bilan hal qilishga tayyor bo'lish imkoniyatidir. M.A. Choshanovning fikriga ko'ra, kompetensiya-bu xususiyatlarning yig'indisi: operatsion bilimlarga ega bo'lish va ularning harakatchanligi, usulning moslashuvchanligi, fikrlashning tanqidiyligi, ko'plab yechimlar orasidan eng maqbulni tanlash qobiliyati, yolg'onni asosli ravishda rad etish, samarali yechimlarni taxmin qila olish, (Choshanov, 1996).

Nazariya va amaliyot tasnifi asosida shakllangan kompetensiya nafaol bilim shaklida emas, balki shaxsning ma'lum vazifalarni bilish, fikrlash, muloqot qilish va harakat qilish, muayyan vazifalar tizimini ilgari surish va hal qilish, bu vazifalarning jarayoni va natijalarini tahlil qilish, doimiy ravishda tegishli tuzatishlar kiritishdan iboratdir (Mogilevich, 1999).

E.I. Ogarev kompetentlik ma'nosida insonning bajarilgan vazifalar va hal qilinadigan muammolarning chuqur mohiyatidan, ushbu sohada mavjud bo'lgan tajribani yaxshi


bilishdan, uning eng yaxshi yutuqlarini faol o'zlashtirishdan iborat bo'lgan bilimga ega bo'lgan faoliyatning barqaror qobiliyatini tushunadi; joy va vaqtning o'ziga xos sharoitlariga mos keladigan harakat vositalari va usullarini tanlash qobiliyati; erishilgan natijalar uchun javobgarlik hissi; xatolardan saboq olish va maqsadga erishish jarayoniga tuzatishlar kiritish qobiliyati deya tushungan (Ogarev, 1995).

V.A. Rozov kompetensiyani quyidagi jihatlarida ko'rib chiqadi:



Jadval-2.

Kompetensiya quyidagi mezonlarning mavjudligi bilan tavsiflangan darajadagi tuzilishga ega:



Jadval-3.

Kompetensiyaning eng keng va batafsil talqini J. Raven tomonidan taqdim etilgan. Raven mas'uliyat, ishonch, qobiliyat, tayyorlik kabi shaxsiy fazilatlaridan foydalangan holda 37

turdagi kompetensiyalarni tasvirlab bergan (Raven, 2002).

Yaqin vaqtgacha "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari bir ma'noda

ishlatilgan, bu "competentia" so'zining ingliz tilidagi tarjimai bilan bog'liq bo'lib, bu ham kompetentlik, ham kompetensiya tushunchalariga mos keladi. Lug'at ta'rifiga ko'ra, kompetentlik – bu shaxsni bildirib, bilim va tajribaga ega bo'lishlikni ko'zda tutsa, kompetensiya-bu ma'lum bir soha, inson hal qilishga qodir bo'lgan masalalar doirasi va kasb talablariga muvofiqlik darajasining individual xususiyati, aqliy fazilatlarining integratsiyasi, mustaqil va mas'uliyatli harakat qilishga imkon

beradigan ruhiy holat; insonning ma'lum vazifalarni bajarish qobiliyati va malakasiga ega bo'lishidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muayyan kompetensiyalar to'plami (maxsus, ijtimoiy, shaxsiy va individual) mutaxassisga o'z kasbiy vazifalarini bajarishga, doimiy ravishda o'zgarib turadigan ijtimoiy va pedagogik sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashishga, madaniyat asarlarini tushunishga va uning rivojlanishiga hissa qo'shishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Farobiy. (2012). *City of virtuous people*. Tashkent, Uzbekistan.
2. Ahmedova, L. T., & Kon, O. V. (2013). *Methodology of teaching Russian language*. Tashkent, Uzbekistan: Fan va texnologiya. (in Russian).
3. Bodalev, A. A. (1983). *Personality and communication: Selected works*. Moscow, Russia: Pedagogika. (in Russian).
4. Choshanov, M. A. (1996). *Flexible psychology of problem-modular learning: Methodical manual*. Moscow, Russia: Narodnoe obrazovanie.
5. Galskova, N. D., & Gez, N. I. (2004). *Theory of foreign language teaching: Linguodidactics and methodology*. Moscow, Russia: Akademiya.
6. Jalolov, J. J. (2012). *Methods of teaching foreign languages*. Tashkent, Uzbekistan: O'qituvchi.
7. Kaykovus. (2016). *Qabusnama*. Tashkent, Uzbekistan: Yangi asr avlodi.
8. Khodjaev, B. X. (2016). *Development of historical thinking in general education school students using modernized didactic tools* [Doctoral dissertation, Pedagogical Sciences]. Tashkent, Uzbekistan.
9. Law on Education of Prezident of Uzbekistan (O'RQ-637) (2020). Tashkent, Uzbekistan.
10. Markova, A. K. (1990). *Formation of learning motivation: Book for teachers*. Moscow, Russia: Prosveshchenie. (in Russian).
11. Mogilevich, Y. L. (1999). Pedagogical conditions for the formation of foreign language communication skills. *Philology: Interuniversity Collection of Scientific Works*, 58–61. Saratov, Russia: Saratov University Press. (in Russian).
12. Muslimov, N. A. (2004). *Professional formation of future vocational education teachers*. Tashkent, Uzbekistan: Fan.
13. Ogarev, E. I. (1995). *Competence in education: Social aspect*. Saint Petersburg, Russia: RAO IOV. (in Russian).
14. Passov, E. I. (1985). *Communicative method of teaching foreign language speaking*. Moscow, Russia: Prosveshchenie. (in Russian).
15. Raven, J. (2002). *Competence in modern society: Identification, development, and implementation*. Moscow, Russia.
16. Yusuf Xos Hojib. (1990). *Qutadgu Bilig* (B. To'xliyev, Trans.). Tashkent, Uzbekistan: Yulduzcha.
17. Zagvyazinsky, V. I. (2005). Strategic guidelines and real policy of educational development. *Pedagogy*, (6), 10-14. (in Russian).